

QADIMGI BOBIL PODSHOLIGI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Elomonov Shuhrat**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Shotirov Latif**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Babil podsholigi va uning siyosiy tarixi, madaniyati va Bobilda Xamurappi qonunlari ahamiyati haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ashshur, Babil, Larsa shahri, Xamurappi, Ugarit, Niniveya, Ur, Uruk.

Аннотация: В этой статье рассказывается о древнем Вавилонском царстве и его политической истории, культуре и важности законов Хамурапи в Вавилоне.

Ключевые слова: Ашшур, Вавилон, город Ларса, Хамурапи, Угарит, нинивея, Ур, Урук.

Annotation: This article will tell about the ancient Babylonian Kingdom and its political history, culture and the importance of the laws of Khamurappi in Babylon.

Keywords: Ashshur, Babylon, Larsa city, Khamurappi, Ugarit, Ninivea, Ur, Uruk.

KIRISH. Mesopotamiyaning janubiy qismi miloddan avvalgi 2-ming yillikning boshidan miloddan avvalgi 538-yilgacha mavjud bo'lgan qadimgi davlat. Markaziy shahri Bobil nomidan olingan. Miloddan avvalgi 3-ming yillikda Mesopotamiyada shahar-davlatlar paydo bo'lgan edi. Babil shahri vujudga kelmasdan oldin Dajla va Furot daryolari orasida — Shumer va Akkad davlatlari mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi XXI asr oxirida ko'chmanchi semit (somiylar) qabilalaridan biri amoriylar Akkadning katta bir qismini bosib olgach, qudratli davlat barpo etib, Babil shahrini markaz qilganlar. Shu davrda elamliliklar ham Shumerda o'rnashib olgan. Mesopotamiyada hukmron bo'lish uchun amoriylar bilan elam qabilalari o'rtasidagi kurashda amoriylar g'olib chiqqan. Qadimiy Babil podsholigida amoriylar sulolasi (miloddan avvalgi 1894—1518) mustahkamlanib olgan[1]. Bu sulola podsholaridan Hammurapi (miloddan avvalgi 1792—1750) Shumerni ham o'z davlatiga qo'shib olgan. Mustabid davlatni mustahkamlash maqsadida Hammurapi buyrug'i bilan yuqori tabaqalarning manfaatini qo'riqlashga qaratilgan qonunlar majmuasi tuzilgan. Bu qonunlar yerga egalik, savdo-sotiq, qulchilik, iqtisodiyijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan. 247 moddadan iborat qonunlar to'plami bazalt ustuniga arxaik mixxat bilan yozilgan. Babil davlatining eng ravnaq topgan davri — Hammurapi hukmronligi davridir. Hammurapidan keyin Babil davlati tushkunlikka yuz tuta boshlagan.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzuni yoritishda asosan Bobilning siyosiy tarixi va Xamurappi qonunlariga alohida e'tibor berilib, Brusaskoning "Mesopotamiya ichki makonini o'rganish nazariyasi va amaliyoti" Parapettining 2007-yilda nashr etilgan "Bobil arxeologik joyi - Iroqning urushdan oldingi holatini arxeologik masofadan zondlash dasturi" kabi bir qator adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, tahliliy, taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Dajla va frot daryolari vohasida, O'rta yer dengizi havzasining sharqiy sohillari hamda Kichik Osiyoning markaziy tog'lik rayonlarida eramizdan avvalgi asrlarda Urartu, Babil kabi davlatlar mavjud bo'lib,ular jahon san'ati, madaniyati rivojiga katta qo'shgan. Yangi Babil podsholigida hashamatli saroy va ibodatxonalar quriladi. Eramizdan avvalgi VII asrda Yangi Babil rivojlanish davrini boshdan kechiradi. Novaxundonosor II hukmronlik qilgan yillarda Bobilda shahar

qurilishi avj oldirib yuboriladi. Shahar qurilishi reja asosida amalga oshirilib, yangi binolar barpo etiladi. Shahar atrofi baland devor bilan o‘rab olindi. Shaharning sakkiz darvozasi bo‘lib, ular ichida Ishtar darvozasi o‘zining ko‘rkam, serhashamliligi bilan ajralib turgan. Bu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yo‘l boshlanar edi. Ibodatxona oldida 90 metrlik Bobil minorasi qurilgan edi. Novaxundanosor fantaziyasi boy inson bolganligini biz u qurgan, serhasham, viqorli go‘zal Osma bog‘lari orqali ko‘rishimiz mumkin[2]. Ammo bu san‘at asarlari dushmanlar davrida vayron etilgan. Bobil tarixini er. avv. VII—VI asrlariga doir ma‘muriy matnlar, yozuvlar, podsho farmonlari va farmoyishlari yetib kelgan. Bobil to‘g‘risida ayrim antik mualliflar ma‘lumotlari mavjud. Hujjatlarga ko‘ra, bu davrda qullarning soni ko‘paygan. Ibodatxona xo‘jaligida yuzlab qullar ishlagan, boylaming yerlarida 3—5 qul, tadbirkor uylarda o‘nlab qullar mehnat qilganlar. Yirik yeregalari erkin kishilaiga va qullarga yemi ijaraga bir xil shartlardaberganlar. Yollanma ishchilar, kam yerli yoki yersiz kishilar ko‘pchiliknitashkil qilgan. Yangi Bobil podsholigi davrida savdotadbirkorlikuylari keng tarqalgan. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra Egibi va Murashu uylari katta-katta yerlarni ijaraga berganlar. Ibodatxonalarham tovar-pul munosabatlariga tortilgan. Ular yer va qullarni ijaraga berganlar. Er.avv I ming yillikda podsho xo‘jaligi sezilarlirol o‘ynamagan. Podsho yerlari ham ijaraga berilgan. Ibodatxonava xususiy xo‘jaliklar yetakchi o‘rinni egallaydilar. Xammurapi (yoki Xammurapi Kodeksi) qonunlari to‘plami, uning hukmronligining oxirida (taxminan miloddan avvalgi 1750-yillarda) yaratilgan) eng qadimgi qonunchilik yodgorliklaridan biridir[3]. 1901-1902-yillarda Suzada (qadimgi Mesopotamiya hududi) hozirgi Eronning Xuziston viloyati hududini qazishmalar paytida Jak de Morganning fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan qora dioritli stelada mixxat yozuvi shaklida saqlanib qolgan. Zamonaviy nashriyotlar ushbu to‘plamni 282 ta maqolaga ajratadilar. Qonunlar akkad tilining klassik bobil lahjasidagi ustunning ikkala tomonidagi mixxat bilan o‘yib yozilgan. Hammurapi davrida bu yozuv uslubi odatda haykaltaroshlik asarlarida va rasmiy yozuvlarda ishlatilgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi xususiy biznes hujjatlari va yozishmalar Ossuriya mixxatiga juda o‘xshash qadimgi Bobil kursivi yordamida amalga oshirilgan[4].Ustunning yuqori qismida ibodat holatida turgan va quyosh xudosi Shamashning qo‘lidan qonunlarni olgan Hammurapining o‘zi tasvirlangan (boshqa versiyaga ko‘ra, stelada taxtda o‘tirgan Marduk xudosi tasvirlangan). Qonunlar matnining bir qismi urib tushirildi va boshqa manbalarga ko‘ra qisman tiklanishi mumkin (masalan, sopol lavhalaridagi qonunlarningiqtiboslari). Ehtimol, stela yaratishdan maqsad subyektlar oldida unda mavjud bo‘lgan qonun hujjatlari kuchga kirishi to‘g‘risida tantanali bayonot berish, uni umumiy foydalanish uchun taqdim etish emas edi[5]. Sud amaliyoti uchun, ehtimol, qonunlar sopol plitalar shaklida ko‘paytirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mazkur davrda Bobil Mesopotamiyadagi davlatlardan kichik bir shahar, yangi mustabid davlatning poytaxti bo‘libgina qolmay, balki Old Osiyodagi qudratli davlatga aylanib, eng yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz bo‘lib qoladi. Ammo ko‘plab g‘alabalariga qaramay qudratli bo‘lib ko‘ringan Bobil podsholigi mayda davlatlarni kuch bilan ushlab, uyushtirib turgan saltanat edi. Bu esa podsholikning negizi ham u qadar mustahkam emasligini ko‘rsatar edi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abdujabbor Kabirov. Qadimgi Sharq tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Tafakkur” 2016.
2. “Qadimgi sharq tarixi” V. Avdiyev Toshkent 1964.\
3. ” TARIX FANINI O‘RGANISHDA YANGI BOBIL DAVLATINING O‘RNI VA AHAMIYATI” Yahyobek Mo‘minov
4. <https://uz.socmedarch.org/babylon-iraq-ancient-capital-170193-13912>
5. “Qadimgi dunyo tarixi” R. Rajabov. Toshkent 2009.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.

7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG‘IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).